

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Los Angeles, California, USA on February 10th, 2023.

www.conferencezone.org

THE HISTORY OF THE ESTABLISHMENT OF THE ARMED FORCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN, LEGAL FOUNDATIONS AND DEVELOPMENT FACTORS

Tavakkalov Alisher Akbaralievich

Tashkent State Pedagogical University

Teacher of the Faculty of Military Education

Omonov Sunnatillo Nodirovich

Tashkent State Pedagogical University

Student of the 3rd stage, group 301, Faculty of Military Education

Akbaraliyev Khurshidbek Sherali ogl

Tashkent State Pedagogical University

Student of the 3rd stage, group 301, Faculty of Military Education

Ochilov Azamat Safer ogl

Tashkent State Pedagogical University

Student of the Faculty of Military Education, 3rd stage, group 302

Abstract

This article describes when the units and units of the Ministry of Defense, the guard troops of the Ministry of Internal Affairs, the Ministry of Emergency Situations, the paramilitary units of the State Security Service of the Republic of Uzbekistan, and the Border Guards were formed in the Republic of Uzbekistan.

Keywords: includes military associations, formations and units established and maintained by the state to protect the national interests, sovereignty, territorial integrity and peaceful life of the population, to repel and prevent wars and armed conflicts.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tashkil topish tarixi, xuquqiy asoslari va rivojlanish omillari

Tavakkalov Alisher Akbaraliyevich

Toshkent davlat pedagogika Universiteti Harbiy ta’lim fakuliteti o’qituvchisi

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Los Angeles, California, USA on February 10th, 2023.

www.conferencezone.org

Omonov Sunnatillo Nodirovich

Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

Harbiy ta’lim fakuliteti 3-bosqich 301-gurux talabasi

Akbaraliyev Xurshidbek Sherali o’g’li

Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

Harbiy ta’lim fakuliteti 3-bosqich 301-gurux talabasi

Ochilov Azamat Safar O’g’li

Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

Harbiy ta’lim fakuliteti 3-bosqich 302-gurux talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida Mudofaa vazirligi tizimidagi qism va bo‘linmalar, Ichki ishlar vazirligining qorovul qo‘sishlari, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining harbiylashtirilgan qismlari, Chegara qo‘sishlaridan qachon tashkil topganligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi milliy manfaatlarini, suvereniteti, hududiy yaxlitligini hamda aholining tinch hayotini himoya qilish, urushlar va qurolli mojarolarni qaytarish va oldini olish uchun davlat tomonidan tashkil etilgan va saqlab turilgan harbiy birlashmalar, qo‘silmalar va qismlarni o‘z ichiga oladi.

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida Mudofaa vazirligi tizimidagi qism va bo‘linmalar, Ichki ishlar vazirligining qorovul qo‘sishlari, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining harbiylashtirilgan qismlari, Chegara qo‘sishlaridan qachon tashkil 2022-yilga kelib O‘zbekiston armiyasi jahoning 106 mamlakati qurolli kuchlari o‘rin olgan jahon armiyalari reytingida 54-o‘rinni egallaydi Bu haqda yangilangan Global Firepower reytingida axborot berilgan.

Global Fire Power (GFP) ma’lumotlariga ko‘ra (ular 2022-yil martiga doir), O‘zbekiston ixtiyorida hozirgi vaqtida 420ta tank, 1215ta BTR (zirhli transport vositasi), 98 ta raketa tizimlari, 70ta qiruvchi samolyot, 65ta vertolyot, xususan,

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Los Angeles, California, USA on February 10th, 2023.

www.conferencezone.org

35ta hujumkor vertolyot va boshqa ko‘plab qurol-aslahaga ega, qurol ko‘tarib, armiyada xizmat qilishi mumkin bo‘lgan aholisi soni esa 15,7 milliondan oshadi. GFP O‘zbekiston haqidagi ma’lumotlarni Markaziy razvedka boshqarmasi sayti, MRBning World Factbook to‘plami ma’lumotlari, „Vikipediya“ va ochiq manbalardagi boshqa ma’lumotlarga asoslanib tuzib chiqqan.

Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida O‘zbekistondan tashqari Qozog‘iston ham reytingdan o‘rin olgan bo‘lib, GFP uni 80-o‘ringa joylashtirgan. O‘zbekistonga hududiy jihatdan yaqin mamlakatlar orasida Afg‘oniston 76-o‘rinni egallagan, Tojikiston, Qирг‘изистон va Turkmaniston reytingga kiritilmagan.

MDH, Boltiqbo‘yi mamlakatlari va Gruziya orasida O‘zbekiston Rossiya (2-o‘rin) va Ukraina (21-o‘rin)dan keyingi 3-o‘rinni band etgan. Ozarbayjon (50-o‘rin), Belarus (52), Gruziya (64), Qozog‘iston (80), Estoniya (96), Litva (103) o‘rin olgan. Armaniston, Moldova, Latviya kabi mamlakatlar reytingga kiritilmagan. Reytingga ko‘ra, AQSh armiyasi eng qudratli deb topilgan bo‘lsa, Rossiya va Xitoy armiyasi kuchli uchlikdan o‘rin olgan. Hindiston, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Turkiya, Janubiy Koreya va Yaponiya armiyasi esa kuchli o‘nlikka kirgan. Qayd etish joiz, GFP’ning 2014-yilgi reytingida ham O‘zbekiston 48-o‘rinda borayotgan edi.

Dunyo davlatlarining harbiy salohiyatini belgilovchi Global Firepower Index’ saytining yangilangan reytingida O‘zbekiston qurolli kuchlari Markaziy Osiyo hududida birinchi, MDH davlatlari orasida beshinchi va dunyoning 145 davlati orasida esa 62-o‘rinni egalladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 31-avgustdagি „O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida“gi Bayonotida „Davlat mustaqilligini, hududiy yaxlitligini, fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquqi va erkinligini himoya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasida Mudofaa ishlari vazirligi va Milliy gvardiya tuziladi. Respublika hududida joylashgan sobiq SSSR Ichki ishlar vazirligi, SSSR Davlat xavfsizlik qo‘mitasi hamda Ichki qo‘shinlari O‘zR yurisdiksiyasiga olinadi“, deb ko‘rsatilgan edi. Bu 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan „O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to‘g‘risida“gi qonunda „O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish, Milliy gvardiya va muqobil xizmatni tashkil etish huquqiga ega“ deb huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Bu amalda yosh respublikaga harbiy siyosatni amalga oshirish huquqini berdi.

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Los Angeles, California, USA on February 10th, 2023.

www.conferencezone.org

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 6-sentyabrdagi farmoniga asosan, Mudofaa ishlari vazirligi tashkil etildi, uning shtat tizimi va vakolatlari belgilandi. 1991-yil 10-sentyabrdagi farmonga binoan, Mudofaa Vaziri ayni vaqtida Milliy gvardiya qo‘mondoni etib tayinlandi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 25-oktyabrdagi qaroriga binoan, Mudofaa ishlari vazirligining huquqiy maqomi, tuzilishi va nizomlari tasdiqlandi. Turkiston harbiy okrugi boshqaruv organlari negizida Mudofaa ishlari vazirligi Bosh shtabi va boshqarmalari tuzildi.

O‘zbekiston Respublikasining „O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to‘g‘risida“gi Qonuni hamda 1991-yil 30-dekabrdagi Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligi Kengashining Qurolli Kuchlari va Chegara qo‘sishnlari haqidagi Minsk qarori asosida 1992-yil 1-fevraldan sobiq Ittifoq tizimidagi qo‘sishnlarni mablag‘ bilan ta’milanishi to‘xtatilishini inobatga olgan holda O‘zR Oliy Kengashi 1992-yil 10-yanvarda „O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan SSSR Ichki ishlar vazirligining harbiy qismlari va o‘quv muassasalarini O‘zbekiston Respublikasi tasarrufiga olish to‘g‘risida“, 14-yanvarda „O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan harbiy qismlar va harbiy o‘quv muassasalari to‘g‘risida“ qarorlar qabul qildi. Unda O‘zR hududida joylashgan sobiq Ittifoqqa qarashli Ichki ishlar va Mudofaa vazirligining qismlari, birlashmalari, qo‘silmalari, oliy o‘quv yurtlari, harbiy tuzilmalari mamlakatning qonuniy tasarrufiga olinadi, deb belgilandi. Qaror asosida harbiy xizmatchilar, ularning oila a’zolari, harbiy muassasalardagi ishchi va xizmatchilar, sobiq Ittifoq armiyasida xizmat qilgan pensionerlarga ijtimoiy va huquqiy himoyalandi. Harbiy qismlar va o‘quv yurtlari, muassasalar, tashkilotlar davlat tomonidan moddiy texnika va mablag‘ bilan ta’minlandi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Karimov I., Milliy armiyamiz — mustaqilligimizning, tinch va osoyishta hayotimizning mustahkam kafolatidir, T., 2003;
2. Vatan himoyasi — muqaddas burch. T., 2001;
3. Armiya — davlat tayanchi va tinchlik kafolati, T., 2005.
4. Islamov Asilxon